

O'ZBEK XALQINING ETNOGENEZI

G'offorov Bekmurod G'ulomjon o'gli

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali Tarix fakulteti sirtqi II
bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek Xalqning (Etnosning) kelib chiqishi, uning ilk ajdodlarini aniq bir jamoa (elat) bo'lib shakllanish jarayonini ilmiy asosda o'rganishva shu jumladan o'zbeklarning urug'-qabila xolatidan asta-sekin elat-xalaq va millat darajasiga o'sib chiqishi boy moddiy ma'daniyati va yozma manbalari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: etnogenezi, kelib chiqishi, ilk ajdodlar, elat bo'lishi, urug'-qabila, elat-xalq, moddiy ma'daniyat va yozma manba.

ЭТНОГЕНЕЗ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Annotatsiya: В статье на научной основе исследуется происхождение узбекского народа (этноса), процесс формирования его первопредков в специфическую общность (элят), в том числе постепенный переход узбеков от рода-племенного статуса к уровеню нации-народа и нации. Речь шла о богатой материальной культуре и письменных источниках.

Ключевые слова: этногенез, происхождение, первопредки, народ, род-племя, народ-народ, материальная культура и письменные источники.

ETHNOGENESIS OF THE UZBEK PEOPLE

Abstract: In the article, the origin of the Uzbek people (ethnos), the process of formation of its first ancestors into a specific community (elat) is studied on a scientific basis, including the gradual transition of the Uzbeks from the clan-tribe status to the level of the nation-people and nation. It was discussed about the rich material culture and written sources.

Key words: ethnogenesis, origin, first ancestors, people, clan-tribe, people-people, material culture and written sources.

O'zbek xalqining aloxida etnik jamoa (elat) bo'lib shakllanish (etnogenezi) jarayonini o'rganish tarix fani oldida turgan muxim va dolzarb, masalalardan biri xisoblanadi. Bu masala anchadan buyon tarixchi olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. O'zbek xalqi o'z mustaqilligiga erishgach bu muammoga qiziqish yana xam kuchaydi. Keyingi yillarda chiqqan ilmiy monografiyalarda, maqolalarda va risolalarda o'zbek xalqining kelib chiqishi (etnogenezi) xaqida bir qancha teran fikrlar aytildi. Lekin, ayrim e'lon qilingan ishlarda ba'zi xatoliklarga, noaniqliklarga xam yo'l

qo'yilgan. Bu xatoliklar ko'pincha mualliflarning etnos nazariyasiga e'tibor bermasliklari tufayli sodir bo'lgan, albatta. Xalqning (Etnosning) kelib chiqishini, uning ilk ajdodlarini aniq bir jamoa (elat) bo'lib shakllanish jarayonini ilmiy asosda o'r ganish uchun avvalo «etnogenez» va etnik tarix iboralarini to'g'ri tushunib, ular xaqida aniq tasavvurga ega bo'lish kerak. Etnik tarix-ma'lum bir xalqning ilk ajdodlaridan boshlanib, elat shakllanishini, uni taraqqiy etish bosqichlarini va elatning yemirilish yoki rivojlanib, millat darajasiga yetishish davrini o'z ichiga oladi. Etnogenez (etnos-yunon tilida xalq, genez-hosil bo'lish, kelib chiqish) bu yangidan tashkil topgan etnik jamoa. Ilgaridan mavjud bo'lgan bir necha etnik komponentlarni o'zaro yaqinlashuvi, ularning bir-biriga qushilib, birgalikda taraqqiy etib borishi hamda shakllanib borayotgan etnosga boshqa yerdan ko'chib kelib qo'shilgan komponentlarning mahalliy aholiga qo'shilishi, unga aralashib borishi natijasida vujudga keladi. Demak, shakllanadigan yangi etnosga ma'lum xududda yashagan xalqlar yoki etnik guruhlardan tashqari, boshqa hududlardan kelgan etnik, antropologik va madaniy jixatdan bir xilda bo'limgan etnoslarning yoki etnik guruxlarning aralashib, qorishib ketishidan ham elat vujudga kelishi mumkin. Yangi etnosning vujudga kelishi bir necha etnik guruxlar yetakchi etnos atrofiga jipslashishidan boshlanadi. Yetakchi etnos maxalliy xalqlar uyushmasi yoki boshqa yerdan kelib o'r nashib qolgan etnik gurux xam bo'lishi mumkin. Yetakchi etnos boshqarayotgan uyushmaga kirgan etnik guruxlar ma'lum vaqt ichida tili, moddiy madaniyati, turmush tarzi, ma'naviyati bilan bir-birlariga yaqinlashib borishi ijobiy natija bersa, yangi etnos o'zagi tashkil topadi. Shu davr ichida birlashishga moyilliklari bo'lgan guruxlar siyosiy, iqtisodiy va boshqa sabablar tufayli bir-birlariga yaqinlasha olmasalar etnik birlik elat darajasiga yetmasdan tarqalib ketishi xam mumkin. Dunyoda mavjud bo'lgan xalqlarning barchasi etnik guruxlarning qo'shilishidan vujudga kelgan. Boshqacha qilib aytganda dunyoda tarkibiga o'zga etnik guruhlar qo'shilmagan biron ta xalq bo'lmasa kerak. Yuqorida tilga olingan etnik nazariyaga asoslanib, biz o'zbek xalqini elat bo'lib, ma'lum tarixiy davrda, ma'lum xududda, maxalliy etnoslar asosida, turli davrlarda kelib qo'shilgan etnik komponentlarning aralashib borishi natijasida shakllangan, deb qaraymiz. Etnos nazariyasiga rioya qilmagan yoki tushunmagan ayrim mualliflar O'zbek xalqining etnogenezini qadimlashtirishga intilib, uning kelib chiqishini milodiy asrning boshlaridan, qadimgi xunlardan yoki VI-VIII asrlardagi turk etnosi va turkiy qabilalardan boshlaydi. Qalam soxiblarining ichida shunday fikrdagilari xam borki, ular o'zbek xalqining shakllanishini Nuh payg'ambarning o'g'li Yofasdan, Yofasning o'g'li Turdan (Turkdan), keyingisining o'g'li Tutaqdan boshlaydilar. Keyingi fikr tarafдорлари o'zbek xalqining kelib chiqishini afsonalashtirib yuborgan. Ma'lumki, uzoq o'tmishda Xun va xun tarkibidagi barcha qabilalar Shimoliy Xitoyda, Sibirda, Milodiy I-II asrlarda esa Qozog'iston cho'llarida, Qirg'izistonda, Sharqiy Turkistonda yashaganlar. Bullarning ayrim guruxlari shu asrlarda Movarounnaxr va Xorazm xududlariga xam kelib joylashganlar. Turk xoqonligi Mug'uliston va Yettisuv xududida (VI asr

o‘rtalarida) tashkil topgan. VI asr oxiri – VII asr boshlarida Turk xoqonliklari Movarounnaxrda, Xorazmda va G‘arbda Orol-Kaspiy dengizi atroflaridagi mintaqalarda o‘z xukmronliklarini o‘rnatgan edilar. Turk xoqonliklari davrlarida xam ikki azim daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig‘iga, Xorazm o‘lkasiga va ularga tutash mintaqalarga turkiy xalqlar, qabilalar kelib o‘rnashgan edi. Demak, Movarounnaxr va Xorazm uchun xunlar, turk xoqonliklari davrida kelgan etnoslar bo‘lib, bulardan o‘zbek xalqi kelib chiqqan, degan fikr tug‘iladi. Shunday bo‘lishi mumkin edi, qachonki xunlar yoki turk xoqonliklari Movarounnaxrni va Xorazmni egallaganda, bu xududlarda, ular kelmasdan oldin, axoli yashamagan bo‘lsa, yoki ularning zarbasidan bu yerlarda yashab kelgan xalqlar batamom qirib yuborilgan bo‘lsa. Tarixda ma’lumki unisi xam, bunisi xam bo‘lmagan. Xun qabilalari kirib kelgan kezlarda Movarounnaxr va Xorazm xududida xorazmliklar, so‘g‘diylar, kushonlar, qang‘lar va bir qancha boshqa xalqlar yashaganlar. Bu xududlarni Turk xoqonligi egallaganda (VI asrning ikkinchi yarmi) xorazmliklar va so‘g‘diylar qatorida kidaritlar, xionitlar, eftalitlar va boshqa xalqlar xam bo‘lgan. Turk xoqonligi xukmronliklarini o‘rnatganda Movarounnaxr va Xorazm xududidan, xoqonlikka itoat etmagan etnik guruxlargina chiqib ketgan xolos. Axolining ko‘philigi o‘z o‘rinlarida qolib bu yerlarga yangidan joylashgan turkiy xalqlar bilan birga bo‘lgan. Demak, ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig‘i va Xorazm o‘lkasi qadimdan nufuzli o‘lkalar bo‘lib, bu xududlar hech vaqt aholisiz qolmagan. Ayrim qalamkashlarning aytganlariga rioya qilib, o‘zbek xalqining kelib chiqishini faqat xunlarndan yoki VI-VII asrlarda kelib o‘rnashgan turkiy xalqlardan boshlasak, unda o‘zbek xalqi tub yerli aholi asosida emas, kelgindi etnik guruxlardan shakllangan bo‘lib chiqadi. Masalaga bu yo‘sinda qaralsa xalqimizning tarixi va madaniyat izlari ancha sayozlashib qoladi. Xozirgi O‘zbekiston xududida qadim-qadimdan yashab kelgan, boy tarix va madaniyat yaratgan bizning ajdodlarimiz bo‘lmay, ular yaratgan moddiy madaniyat va ma’naviyatdan chetlanib qolgan bo‘lamiz. Bu esa ayrim munofiqlarga qo‘l kelishi turgan gap. Biz bu yerda xun yoki boshqa turk etnoslarining kelib chiqishini o‘rganishdan chetlashib o‘tish kerak demoqchi emasmiz. Aksincha, ularga axamiyat berish kerak, chunki ularning o‘zbek va boshqa Markaziy Osiyo xalqlarning etnik tarixida, umum turkiy dunyosining vujudga kelishida roli benixoyat katta. Agar biz o‘zbek ajdodlarining aloxida xalq (elat) bo‘lib shakllanish sanasini IX-X deb olsak, unda qadimgi elatlarni (xun, turk va boshqalar) o‘zi emas ularning eng keyingi avlodlari o‘zbek elatinining tashkil topishida qatnashgan komponentlar deb qarash to‘g‘ri bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, qadimgi elatlar tarqalib, uning qoldiqlari aloxida komponentlar bo‘lib, o‘zbek xalqining shakllanish jarayonida qatnashgan. Demak, o‘zbek elati kelib qo‘shilgan etnik elementlardan emas, maxalliy etnoslar asosida vujudga keladi. Tarix guvoxlik berishicha, o‘zbek ajdodlari Movarounnaxr va unga tutash bo‘lgan viloyatlarda juda qadim davrlardan buyon yashab kelganlar, ular o‘zbek elatinining asosini, ramziy ma’noda, o‘q ildizini tashkil etgan. Yon ildizlari o‘q ildiziga biriktirib borishi jarayonida o‘zbek elati vujudga kelgan. Mazkur elat maxalliy axoli

ajdodlari qoldirgan boy tarixiy merosni, ma'naviyatni avaylab saqlaydilar, uni to'ldiradilar va barcha an'analari bilan birga keyingi avlodga meros qoldiradilar.[1]

Elat – sinfiy jamiyatga xos etnik uyushma. Antik va feodalizm bosqichlarida Markaziy Osiyoda bir qancha elatlar tashkil topgan: baqtriyaliklar, so'g'diyalar, xorazmiylar, qang'lar, xunlar va boshqa elatlar. Ilk o'rta asrlarda turk elati turkiy xoqonliklar tanazzulidan keyin o'g'uz elati, kimak-qipchoq elati va boshqalar. Bu elatlardan birontasidan o'zbek elati unib chiqqan emas. Boshqacha qilib aytganda, tilga olingan elatlarning birontasi xam o'zbek elatining asosiy o'zagini tashkil etgan emas. Lekin bularning parchalanib ketgandan keyingi, etnik jixatdan bir qancha o'zgargan avlodlari o'zbek elatining etnogenetik jarayonida qatnashganlar. Elat aloxida jamoa bo'lib shakllanishida taraqqiy etadi va oxiri tanazzulga uchrab tarqalib, yo'qolib ketishi xam tabiiy xolat. Masalan, yuqorida eslatilgan baqtriyalik, xorazmiylar, so'g'diyalar, qang'lar, xun elati va boshqalar. Bu elatlarning birontasi rivojlanib millat darajasigacha yetib kelgan emas. Faqat ilk o'rta asrlarda vujudga kelgan ayrim yangi elatlar, jumladan o'zbek elati o'rta asrlarning keyingi bosqichlarida yuz bergen barcha siyosiy o'zgarishlarni kechib, millat darajasigacha yetib keldi. Har qanday xalq aloxida jamoa (elat) bo'lib ma'lum bir xuddudda, ma'lum tarixiy davrda, sharoitda shakllanadi. O'zbek xalqining ajdodlari xam elat bo'lib Movarounnaxr va Xorazm hududida hamda ularga tutash mintaqalarda shakllangan. Bu hududlarda antik davrlarda sug'orma ddexqonchilik va hunarmndchilik bilan shug'ullanib kelgan baqtriyaliklar, xorazmliklar, so'g'diyalar, farg'onaliklar, shoshliklar yashab kelgan edilar. Cho'l zonalarida saklar, massagetlar va boshqa ko'chmanchi qabilalar joylashib, asosan chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Tarixchi, sharqshunos va tilshunos mutaxassis olimlar (S.P. Tolstov, A.Yu. Yakubovskiy, K.V. Trever, A.A. Freyman, V.A. Livshid va boshqalar) tilga olgan xalqlar sharqiy eron tiliga mansub etnoslar bo'lganligini ta'kidlab o'tgan edilar. Balki shunaqadir. Antik davrlarda, uning birinchi yarimlarida Markaziy Osiyo mintaqalarida turkiyzabon etnoslar ham bo'lganligi ehtimoldan xoli bo'lmasa kerak. Qadimgi yunon va eron manbalarida bularni xam eron tilli qabilalar qatoriga qo'shib sak-massagetlar deb qayd qilingan bo'lishi mumkin. So'zsiz bu masalalar chuqur o'rganishni talab qiladi.[2]

Movarounnaxr va Xorazm mintaqalarida turkiy qabilalar miloddan oldingi II-I milodiy I asrlarda kelib o'rnashganligi xaqida aniq ma'lumot Xitoy voqenavislarining axborotlarida uchraydi. Miloddan oldingi III asrлarda Sirdaroning o'rta oqimlarida yirik Qang' davlati tashkil topadi. Bu davlat to V asr o'rtalarigacha o'z xukmronligini saqlab qoladi. Miloddan oldingi V-IV asrlarda Tangritog' (Tan-Shan tog'lari) ning shimoli – sharqida yashovchi usunlarning ayrim qismlari, hamda shimoliy Xitoyda, janubiy Sibirda va Jung'oriyada joylashgan xun etnik guruxlari ko'chib kelib Qang' davlati xududlariga o'rnashdilar. Sirdaryo soxillarida ikki tilga (eron va turk) mansub etnoslar uchrashdilar va ular bir-birlari bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib keldilar. Bu aloqalarning tobora rivojlanib, chuqurlashib borishi natijasida turkiyzabon etnoslar

ustivorlik qilib, yangi turkiy etnos - qang'lar elati vujudga keldi. Shunday qilib, eron tilli xalqlar (so'g'diyonlar, assianlar, oslar, saklar va boshqalar) bilan Sirdaryo soxillariga va Movarounnaxning boshqa mintaqalariga, Xorazm o'lkasiga kelib joylashgan turkiy etnoslar bilan qo'shilib, qorishib ketishlari natijasida qang'lar elati shakllanadi. Miloddan oldingi I-II milodiy I-II asrlarda Sirdaroning o'rta oqimida, Zarafshon voxasida dexqonchilik, xunarmandchilik va savdo-sotiqlik bilan shug'ullanib kelgan axoli (so'g'diyilar, o'troqlashib qolgan saklar va boshqalar) madaniyati (Ya'ni tub yerli axoli madaniyati) shu xududlarga kelib o'rnashgan ko'chmanchi chorvador turkiy etnoslar madaniyati (ko'chmanchi xalqlar madaniyati) aralashib boradi. Natijada bir-birlari bilan aralashgan qo'shma madaniyat xosil bo'ladi. Tub yerli axoli bilan ko'chmanchi qabilalarning madaniyatining qo'shilishi arxeologik ashyolar bilan xam tasdiqlangan; arxeologlar bu madaniyatni qang'uylar madaniyati yoki qovunchi madaniyati, deb nomlaganlar. Milodiy I-II asrlarda Qang' davlati juda katta xududga (Zarafshon voxasi, Qashqadaryo, Xorazm, Orol dengizining janubi-sharqiy va shimoliy cho'llaridan to Urol tog'oldi mintaqalariga egalik qilar edi. Ammo Qang' davlatining asosiy yeri Sirdaroning o'rta oqimlariga tutashgan xududlar (Shosh voxasi, xozirgi Qozoqiston respublikasining Chimkent va qisman Jambul viloyatlari) bo'lgan. Qang' asosiy xalqi -- qang'arlar shu davrlarda Movarounnaxr va Xorazm xududlariga borib o'rnashgan xam edilar. Sirdaryo o'rta oqimida vujudga kelgan turkiyzabon qang'ar etnosi Markaziy Osiyoda, jumladan Movarounnaxda ilk antik davrlarda yashagan (Baktriyaliklar, saklar, toxarlar, so'g'diyonaliklar va boshqalar) xalqlar yaratgan moddiy va ma'naviyatning vorislari bo'lgan. Shuning uchun bo'lsa kerak, qang'arlar madaniyatining ko'p tomonlari Movarounnaxr axolisining antik davrdagi madaniyatiga o'xshab ketadi. Ayni shu davrlarda O'rta Osiyo vodiylari va voxalarida yashovchi so'g'diyonaliklar va qang'arlarning tashqi qiyofalarida Pomir-Farg'ona antropologik tipi t°liq shakllangan bo'lishi kerak. Milodiy III-V asrlarda O'rta Osiyonining markaziy viloyatlarida janubiy Sibirdan, Jung'oriyadan, Sharqiy Turkistondan ayrim qabilalar kelib joylashgan. Xionlar (Xioniylar), kidariylar, va eftaliy (abdal) etnoslari shular jumlasidandir. Bu etnik guruxlarning kelib chiqishi xaligacha to'liq oydinlashmagan. Kidariylar, ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha eron tilli xalqlar bo'lgan. Ammo bizda mavjud tarixiy manbalar asosida ishonch bilan aytish mumkinki, Xioniylar va eftaliylar turk tilli xalqlar bo'lganlar. Xitoy voqenavislarining (shaxsan Beyshida) axborotlarida «Bir vaqtlar Suda (So'gd-K.Sh.) xokimini o'ldirib Sudani egallagan edilar» deyilgan. Beyshida qayd etilgan bu voqealari milodiy IV asr o'rtalariga to'g'ri keladi. V.V. Bartold va L.N. Gumilev Sug'diyonani va uning markazi Samarqandni egallagan xunlar bo'lganligini ta'kidlaydilar. Ayni shu vaqtarda xioniylar siyosiy maydonga chiqib, Eron sosoniylari bilan Xuroson chegaralarida qattiq jang olib boradilar. IV asrda Movarounnaxr xududida yashovchi yirik turkiy etnoslardan yana bittasi eftaliylar (zeptal, eptal, abdal) bo'lgan. Eftaliylar xam xunlardan ajralib chiqqan yirik

etnoslardan biri. Bularning ilk ajdodlari Oltoy va Sayon tog'oldi mintaqalarida yashaganlar.[3]

Milodiy II-III asrlarda ularning katta bir qismi g'arbga siljib III asr oxiri-IV asrda Volga daryo b°ylariga, Qora dengiz yaqinidagi cho'llarga va Shimoliy Kavkaz mintaqalariga borib o'rnashgan. G'arbga qarab siljigan xunlar tarkibida abdal, eftal etnonimlari mavjud edi. Xunlar g'arbga ko'chish vaqtida ularning yirik bir guruxi milodiy III asrda janubga, Movarounnaxr xududiga kelib o'rnashgan bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmasa kerak. Keyingi asrlarda (IV-VI) bular ikki daryo (Amu va Sirdaryo) oralig'idagi axolining katta qismini tashkil etgan. Arab geograflari Muqaddasiy Yoqut va Ma'sudiy, o'zlaridan ancha oldin o'tgan Mualliflarning ma'lumotlariga asoslanib, Movarounnaxrning shaxar va qishloqlarida yashovchi axolini ko'pchiligin eftaliylar tashkil qilganligini qayd etgan edilar. Demak, V-VI asrlarda eftaliy va xiyoniylarning asosiy qismi turg'un yashagan; ularning jangovar qismlari yarim ko'chmanchi va yarim o'troqlikda xayot kechirib, an'anaviy chorvachilik bilan bir vaqtda dexqonchilik bilan xam shug'ullanganlar. Movarounnaxrning siyosiy boshqaruvi avval xioniylar qo'lida b°lib, V asrning yarmida esa kuchayib qolgan eftaliylar qo'liga o'tdi. Shu asr davomida eftaliylar So'g'diyonani, Toxaristonni, Sharqiy turkistonni va Sirdaroning o'rta oqimlarini egallaydilar. Markaziy Osiyoda yirik eftaliy davlati vujudga keladi. Ammo uning xukmronligi uzoqqa bormaydi. VI asrning 60-yillarida turk xoqonligi zarbidan eftaliylar davlati yemiriladi. O'rni kelganda shuni ta'kidlab o'tish joizki, bir qancha tadqiqotchilar eftaliylarni turkiy xalq ekanligini tan olmasdan kelganlar. Bundan maqsad Movarounnaxrning asosiy xalqi o'tmishda eron tilli bo'lganligini ukdirish edi. Ammo tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganilganda, masalaga bu yo'sinda, bir tomonlama yondashish xato ekanligini tushunish mumkin. Eftaliylar mag'lubiyatga uchragandan keyin, ularning asosiy qismi Movarounnaxr va unga yaqin mintaqalarda yashab qolgan edilar. Ularning faqat ayrim guruxlari (asosan yarim ko'chmanchi guruxlar) Afg'oniston va Xindiston xududiga ko'chib o'tgan edilar. Eftaliylarning ba'zi guruxlari tarixchi -geograf Gardiziyning yozishicha Xurosonda xam yashagan. Movarounnaxrda qolgan eftaliylar shu xududda yashayotgan qang'arlar bilan qo'shilib tub yerli turkiy zabon etnik qatlamga singib ketgan. Bularning avlodlari o'z etnik nomlarini bizgacha saqlab qolganlar. O'zbek va Turkman xalqining tarkibida XX asr boshlarigacha abdal etnomini mavjudligi buning dalili bo'la oladi. Abdal etnik guruxi boshqird xalqining ichida xam mavjud bo'lgan. Boshqirdlar tarkibidagi abdal milodiy II-IV asrlarda g'arbga siljib ketgan eftaliylarning (Abdal) eng keyingi avlodlari bo'lishi kerak. Ma'lumki, VI asr o'rtalarida Oltoya, janubiy Sibirda, Yettisuvda, Sharqiy Turkistonda joylashgan bir necha qabilalar birlashishi natijasida Turk xoqonligi tashkil topadi. Qisqa vaqt ichida Turk xoqonligi kuchayib Markaziy Osiyoning katta qismini, jumladan Movarounnaxrni egallaydilar. VI asrning 80-yillarida Eron Sosoniylari ustidan g'alaba qozonib turk xoqonligi Xuroson viloyatlarining bir qancha xududlarini zabit etadilar. Ammo, bu vaqtinchalik edi. Eron

bilan Turk xoqonliklari o'rtasidagi asosiy chegara Amudaryo bo'lib qolgan edi. G'arbda esa turk xoqonlari Volga va Qora dengiz soxillariga qo'shin tortib borib, 576-yil Karch shaxrini, 581-yili esa Xersonni va boshqa bir qancha shaxarlarni qo'lga kiritib, o'z xukmronligini o'rnatadi.Turk xoqonliklari davrida (VI-VII) O'rta Osiyoning markaziy mintaqalariga (Toshkent voxasi, Zarafshon , Qashqadaryo voxalari, Surxondaryo, Farg'ona vodiylari) va Xorazm zaminiga turkiy qabilalar ko'plab kelishadi; ularning aksariy ko'pchiligi shu xududlarga turg'unlashib qolgandi. VI-VII asrlarda Movarounnaxr va Xorazm axolisini quyidagicha tassavur etish mumkin: a) qadimdan dexqonchilik, xunarmandchilik va tijorat bilan shug'ullanib kelayotganfors –eron tilli so'g'diyilar, Xorazmiyolar va boshqalar; b) dexqonchilik, xunarmandchilik va tijorat bilan shug'ullanib kelayotgan turkiyzabon axoli. Bu axoli yuqorida qayd etganimizdek, o'troqlashib qolgan qang'arlar, xioniylar, eftaliylar va Turk xoqonliklari davrida kelib turg'unlashib qolgan, bir qancha boshqa qabilalar; v) yarim o'troq va yarim ko'chmanchi bo'lib yashayotgan turkiy tilli va fors-eron tilli etnik guruxlar. Bu guruxlar asosan voxa atroflarida, tog'oldi qirlarda yashab dexqonchilik bilan bir vaqtida chorvachilik bilan xam shug'ullanganlar; g) ko'chmanchi turkiy tilli qabilalar. Bular cho'llarda va tog' oldi rayonlarida yashab asosan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Yuqorida keltirilgan Movarounnaxr va Xorazm axolisi tarkibidan ko'rinish turibdiki, bu xududlarda qadim-qadimdan buyon ikki til turkumidagi fors-eron va turkiy xalqlar yonma-on aralashib yashab kelganlar. Bular, asrlar davomida birgalikda shaxarlar barpo etganlar, kanallar qazib suv chiqarganlar, dexqonchilik qilganlar, boy madaniyat yaratib avlodlarga qoldirganlar.Shuni xam ta'kidlab o'tish joizki, bu ikki til vakillari asrlar davomida birga yashab kelishlari natijasida fors-eron tilli axolining ayrim guruxlari fors-eron tilini qabul qilib so'g'diylargan, xorazmiylarga va boshqalarga aralishib ketganlar. Demak, etnoslarning o'zaro yaqinlashishi, aralashishi va qorishib borish jarayoni xar ikki til vakillari orasida kechgan. VIII asr boshlarida arablar Movarounnaxr va Xorazm xududlariga bostirib kirgan vaqtarda, bu xududlardan faqat ayrim ko'chmanchi qabilalar chekinib ketgan bo'lishi mumkin. Turg'un va yarim o'troq turkiyzabon axoli, so'g'diyilar va Xorazmning tub yerli axolisi o'z yerlarida qolib, arablar, keyinchalik (IX) somoniylar xukmronligi ostida yashaganlar.VII asr oxiri – VIII asr boshlarida Turkesh xoqonligi tashkil topadi. Turk va Turkesh xoqonligi davrlarida Yettisuvning (hozirgi Qozig'istonning janubi-sharqiy mintaqalari, Qirg'iziston xududi) etnik tarkibi xam bir xilda bo'lman. Bu xududlarda asosan nushibi, turkesh qabila ittifoqlari joylashgan. Bularning aksariy ko'pchiligi ko'chmanchi qabilalar bo'lib, chorvachilik bilan kun kechirganlar. Yettisuvda, Buyuk Ipak yo'lidagi shaxar qo'rg'onlarda dexqonchilik, xunarmandchilik va tijorat bilan shug'ullanib kelgan turg'un turkiyzabon axoli va qisman so'g'diyilar va xar yerdan kelib o'rashib qolgan (ko'pincha Xitoydan, Mo'g'ilistondan) xalqlar yashaganlar. Turkesh xoqonligi davrida Yettisuv axolisi bilan Movarounnaxr axolisi o'rtasidagi etnik, iqtisodiy va madaniy aloqalarda ma'lum o'zgarishlar bo'lgan. Ayrim jabhalarda (tijorat, madaniyat va

ma’naviyatda) o’zaro yaqinlashish bir muncha rivojlangan. Movarounnaxrda qat’iylaşib borayotgan islom dini Sirdaroning o‘rtalari shaxar va qishloqlarga xam ta’sir qilgan, ammo ayrim noiblar o‘rtasidagi munosabatlar keskinlashib Movarounnaxr bilan b°lgan aloqalar ba’zan uzilib xam qolgan. 766 y. qarluq qabilasi ittifoqi turkeshlar ustidan g‘alaba qozonib Yettisuvni batamom egallaydilar. 840y. Qarluq davlati tashkil topadi. Yettisuv, Isfojob (hozirgi Chimkent) viloyati, Shosh (Toshkent viloyati), Sharqiy Turkistonning g‘arbiy qismi, Farg‘onanining shimoliy (tog‘li) mintaqalari Qarluq davlati doirasida bo‘lgan. IX asrning ikkinchi yarmi – X asr davomida Movarounnaxrda Somoniylar xukmronlik qilar edilar. Ana shu ikki davlat (Qarluq va Somoniylar davlati) xududida o‘zbek va tojik avlodlari aloxida jamoa-elat bo‘lib shakllanadilar. O‘zbek elatining shakllanishida Qarluq davlatining roli benixoyat katta. X asr o‘rtalaridan boshlab bu davlat tarixiy manbalarda Qoraxoniylar davlati nomi bilan tilga olinadi. Qarluq xoqonlarining unvonlarida Qora (ulug‘, buyuk ma’nosida) atamasi mavjud b°lganidan, sharqshunos olim V.V. Grigoryev qarluqlar tomonidan tashkil etilgan davlatni Qoraxoniylar davlati deb ilmiy adabiyotlarga kirgizgan. Haqiqatda esa Qoraxoniylar davlati Qarluq davlatining o‘zi uning davomi bo‘lgan. Qarluqlarning IX-X asrlarda egallab turgan xududda 20 dan oshiq katta shaxar, juda ko‘p qishloqlar bo‘lgan.Qarluqlar, «Hudud al-olam” qo‘lozma asarida (asrda) qayd etilishicha, ko‘p sonli, nufuzli xalq bo‘lib bir qismi chorvachilik, bir qismi ovchilik va yana bir boshqa qismi esa o‘troqlashib,dexqonchilik bilan shug‘ullaniganlar. Katta xududda qarluqlarning o‘zlarigina yashamay, ular bilan birga bir qancha turkiy qabilalar xam aralash xolda yashab kelgan. Etnoslarning ichida eng yirigi chigil, xalach va laban bo‘lib, bular VIII asrlarda Teles qabila ittifoqidan ajralib chiqib qarluqlarga qo‘silgan. Qarluqlar egallab turgan xududda yana turk va turkesh xoqonliklari tanazzulidan keyin shu yerlarda qolib yashagan noshubi, dilu, arg‘u, tug‘si, az, uz, sariq va boshqa guruxlar xam mavjud bo‘lgan. Qarluqlar xududidagi shaxar va qishloqlarda dexqonchilik, xunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib kelgan turg‘un axoli xam salmoqli o‘rin egallagan. Bu axolining asosiy qismini asrlar davomida o‘troqlashib qolgan turkiyzabon axoli tashkil etgan. Buyuk Ipak yo‘lidagi shaxar va qo‘rg‘onlarda (Isfojob, Taroz, Bolasag‘un, Suyob, Qoshg‘ar, Xo‘tan va bosh.) turkiyzabon axoli bilan birgalikda So‘g‘dilar (so‘g‘dak) va boshqa elat vakillari xam yashagan. Bularning ko‘philigi asosan xunarmanchilik va tijorat ishlari bilan shug‘ullanib, ayrim shaxar va qishloqlarda alaxida jamoa bo‘lib yashaganlar. Yuqorida tilga olingan mintaqalarda yashovchi barcha axoli VIII asr oxirlaridan (Qarluqlar Yettisuvni egallagan sanadan boshlab) to X asr o‘rtalarigacha qarluq xoqonlari xukmronligi ostida bo‘lgan. O‘zbek ajdodlari elat bo‘lib shakllanayotgan davrlarda, unda ishtirok etgan etnoslarning aksariy qismi Talas, Chu daryo xavzalarida, Sirdaryo bo‘ylarida, Sharqiy Turkistonning g‘arbiy qismida, Shimoliy Farg‘onada yashar edilar. O‘zbek elatining asosiy o‘zagi ayni shu xududda shakllana boshlagan. Shu o‘rinda qayd qilib o‘tish joizki, o‘zbek elatining shakllanishda bu mintaqalarda yashovchi etnoslarning barchasi bir xilda ishtirok

etmaganlar. Qarluq davlati xududida yashovchi ayrim etnik guruxlar, masalan, yobaqu, yoriq (joriq) va boshqa o'zbek elatining shakllanishida qatnashmagan bo'lishi xam mumkin. Arg'u, tug'si, bijanak (pecheneg), terkesh qabilalarining bir qismi yoki ayrim guruxlari qarluq xoqonlarining itoatida bo'lsalar xamki, o'z qabila tuzumini saqlab, shakllanayotgan elatga qo'shilmay kelar edilar. Demak, o'zbek elatining shakllanib borishida bu xudduda joylashgan barcha etnoslarning barchasi bir maromda ishtirok eta olmaganlar; ularga ma'lum bir xudduda asrlar davomida yonma-on yashab kelgan (oldnlari boshqa tilda so'zlashgan bo'lsalar xam), turmush tarzi, an'analari, madaniyatlari bilan bir-birlariga yaqin bo'lgan etnoslar yoki ularning ma'lum qismi qatnashishi mumkin bo'lgan. Etnosni shakllanish jarayoni ma'lum bir davlat xududida o'tishi etnogenetik shartlardan biri hisoblanadi. Ammo ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo shaxarlari sharoitida qatishgan etnik elementlar qo'shni davlatlar xududida xam yashab, ma'lum jarajada etnogenetik jarayonda ishtirok etganlar. Masalan, shakllanayotgan tojik etnosi nafaqat Somoniylar hukmronlik qilayotgan yerlarda, balki qarluq va uyg'ur davlatlari xududida xam yashar edilar; bularning ma'lum qismi tojik xalqining etnoginezida qatnashganlar, ayrim qismlari esa qarluq vag uyg'ur davlati ichida qolib, bu yerdagi axoliga qushilib ketgan edilar. IX-X asrlarda mavjud bo'lgan Somoniylar davlati, garchi tojik davlati xisoblansa xamki, uning xududida turg'un yashovchi turkiy tilli axoli, Movarounnaxda qadim davrlardanoq hosil bo'lgan turkiy qatlam mavjud edi. VIII-X asrlar davomida bu xudduda Sirdaryo soxillaridan va uning shimolida yashovchi qabilalar vaqt- vaqt bilan kelib o'rnashishi, ularning o'rtoqlashishi xisobiga turg'un axoli son jixatidan yana xam ko'payib borgan. Voxa atroflarida, tog' oldi qirlarda yarim o'troq va yarim ko'chmanchi turkiy qabilalar xam joylashgan edi. Somoniylar xududida joylashgan turkiyzabon axoli Sirdarodan shimoldagi qardoshlari bilan doimo iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lib kelgan. Bularning o'zaro aloqalarini davom ettirishda Qarluq va Somoniylar davlatining chegaralari qat'iy to'siq bo'la olmagan. Somoniylar avvaliga ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiyzabon qabilalarni o'z xududiga kirgizmaslik uchun, voxalar atrofini (Shosh, Samarqand, Buxoro) baland devorlar bilan o'rab (bu devorlar xalq orasida «kampir devor» deb atalgan), chegaralarda xarbiy soqchilar qo'yganlar. Ammo bu to'siqlar vaqtinchalik tadbir edi xolos. Ismoil Somoni davrida bu to'siqlarning axamiyati qomagan edi. Shuni uqtirib o'tish joizki, Somoniylar xududiga kelib o'rnashgan turkiyzabon etnoslar va ayrim kishilar, xo'jaliklar, islam dinini qabulqilishlari kerak edi; bu Movarounnaxrga kelib o'rnashishning asosiy sharti edi. Somoniylar o'z xududlarini yomon niyat bilan, yovuzlik qilib bostirib kiruvchi ko'chmanchi qabilalardan ximoya qilganlar. Islam dinini qabul qilib, najot so'rab o'tloq, yaylov, yer so'rab kelganlar xech qanday qarshiliksiz qabul qilingan. Tojiklarning ayrim guruxlari, yuqorida qayd etganimizdek, qarluqlar yerida xam yashar edilar. asrda bularning Taroz, Chu xavzalaridagi shaxar va qishloqlarga, Sharqiy Turkistonga ko'chib borishlari yana xam jadallahshgan edi. Chunki bu davrda qarluq xududida

yashovchi axolining aksariy qismi musulmon dinini qabul qilib bo'lgan edi. Din peshvolariga, Ma'lumotli kishilarga keng yo'l ochilgan. Talas, Chu va Ili vodiyalariga borib o'rashgan tojiklarning ko'pchiligi esa xunarmandchilik, savdo-sotiq va ayrim guruxlar dexqonchilik bilan xam shug'ullanib kelganlar. Keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, tojik va o'zbek ajdodlri qadimda, ilk o'rta asrlarda va keyin xam doimo bir xudduda birga aralishib, yonma-on yashab kelganlar. Bularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lman. Shuning uchun xam Maxmud Qoshg'ariy, «Totsiz turk bo'lmas, bosh siz bo'rk bo'lmas», Ya'ni tojiksiz turk bo'lmanidek, bosh qalpoqsiz (bosh kiyimsiz) bo'lmas degan maqolni keltirgan edi. Tot atamasi bu yerda Maxmud Qoshg'ariy fors-tojik tilli axoliga nisbatan qo'llagan. Tojik va o'zbek ajdodlarining ilk o'rta asrlarda elat bo'lib shakllanishi ikki davlat -- Qarluq va Somoniylar xududida o'tganligi tabiiy xolat edi albatta. Bu ikki xalqning bu xudduda shakllanishi tufayli ularning etnogenetik tarixining ko'p qirralarida umumiylig xosil bo'lgan. Ma'lumki, o'zbek va tojik elatlari qadimgi etnoslardan (sak, massagetlar, baqtriyaliklar, yuyechji, toxarlar, so'g'diyalar, qang'arlar va boshq. xalqlardan) tomir olganlar. Shuning uchun xam ularning madaniyat va turmush tarzlarida, urf-odatlarida o'xshashliklari ko'p bo'lgan. Shu bilan birga, ularning xar biriga xos (bir elatni ikkinchisidan fapqini bildiruvchi) xususiyatlari – tili, o'zligini anglashi, ruxiyati va boshqalar xam mavjud edi. Bu xususiyatlari bilan bir elat ikkinchi elatdan ajralib turgan. Xorazm IX asrning ikkinchi yarmi – asrda Somoniylar davlati tasarrufida bo'lgan. Lekin Xorazmshoxlar davlatida xorazmlarning o'zidan chiqqan shohlar (xorazmshoxlar) xukmronlik qilib kelganlar. Xorazm yarim mustaqil davlat bo'lsa xam o'sha davrda iqtisodiy va madaniy jixatdan taraqqiy etgan o'lka hisoblangan. Xorazmning turg'un axolisini o'z etnik nomiga (Xorazm – nafaqat siyosiy, geografik nom, axolisining nomi xam edi) va tiliga ega edi. Ularning qadimgi tili Eron til guruxi bo'lsa xam, lekin tildan katta farq qilgan. Qo'shni eron va turkiyzabon axolidan xorazmliklar moddiy madaniyatları (uy-joylari, kiyim boshlari) san'atlari bilan farq qilganlar. IX-X asrlarda Xorazm o'lkasida turg'un yashovchi turkiyzabon axoli (qang'li, bijanak, o'g'uz) xam mavjud bo'lgan. Ammo bular son jixatidan tub yerli, Xorazm axolisidan kam edi. So'zsiz turkiyzabon etnoslarning ta'sirida Xorazm axolisining talay qismi (shaxsan alanlar) turkiylashib qolgan edi. Lekin Xorazm xududida yashovchi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turkiyzabon axoli Xorazmning turg'un axolisiga iqtisodiy xamda madaniy jixatdan ta'sir etishga ojizlik qilar edi. Xorazmlarning iqtisodiy va madaniy darajasi, ong sezimi ularga nisbatan yuqori bo'lgan. Bu o'lkan tarixiga oid barcha tomonlarini xisobga olib, Xorazm axolisi XII asrlar boshlarigacha (mo'g'illar istilosigacha) aloxida elat (xorazm elati) bo'lgan desak xato bo'lmas. Ong sezimi, o'zligini anglash (albatta o'z davri darajasida) turkiylilik (til jixatdan) tushunchasi IX-X asrlarda o'zbek ajdodlarining elat bo'lib shakllangan qismida qat'iyashib qolgan edi, ammo iqtisodiy va madaniy taraqqiyot (o'zbek ajdodlarining elat bo'lib shakllangan qismida) xali nioxoyasiga yetmagan edi. Shu davrlarda (IX-X) etnogenetik jarayonda qatnashgan etnik

guruxlarning ayrimlari ko'chmanchilikda va yarim o'troqlikda kun kechirib, chorvachilik bilan dexqonchilik, xunarmandchilik va tijorat ishlari bilan shug'ullanib kelganlar. Bu guruxlar o'rtasida xali iqtisodiy aloqlar yetarlik darajada emas edi. Bularning madaniy darajasida xam tafavut katta edi. Qarluq davlati xududida turli diniy e'tiqodlar (tangriga sig'inish, burxonlik, budda, xristianlik vag boshq.) mavjud edi. Ilm fan taraqqiyoti xam yetarli darajada rivoj topmagan. Qarluq - chigil lahjasi ustivorlik qilib kelayotgan bo'lsa xam, ammo bu laxja o'zbek elati tarkibiga kirgan barcha etnik guruxlarga singib, umum elat tili darajasiga ko'tarilish jarayoni nixoyasiga yetmagan edi. Etnik jarayon oxirlashi uchun elatni shakllanish darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar shu davlat xududida rivojlanib elat va xudud ichida qat'iylashib qolishi lozim edi. Buning uchun ma'lum vaqt kerak bo'lgan. Asr o'rtalarida Farg'onaning shimolidagi xududlarda, Qoshg'ar yaqinida yashovchi qarluqlar kuchayib, xokimatni o'z qo'llariga oladilar. Bularning davrida Qoraxoniylar (ulug' xonlar) va fuqarolar islam dinini qabul qildilar. Bu islam dini tez vaqt ichida Yettisuv va Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalariga tarqaladi. Islom dini bu xududlarga kirib borishi Qoraxoniylar boshqarayotgan xudud bilan Movarounnaxr musulmonlari o'rtasida aloqlar kuchayadi, ilmu fan Qarluq-Qoraxoniylar davlati xududida xam keng rivojlna boradi. Asrning oxirida ichki ziddiyatlar kuchayib Somoniylar davlati kuchsizlanadi. Bundan Qoraxoniylar foydalanadilar; Harbiy yurishlar qilib, ular 998-1011 yillar davrmida Movarounnaxrn katta qismini egallab o'z xukmronliklarini o'rnatadilar. XI asr boshlarida Qoraxoniylar davlati Amudarodan to Torim darosigacha bo'lgan katta xududga egalik qildilar. Amudaryo Qoraxoniylar bilan G'aznaviylar o'rtasidagi chegara bo'lib qoladi. Shu vaqtadan, o'zbek ajdodlarining etnogenetik jarayoni taraqqiyoti ikkinchi bosqichga o'tadi. Qoraxonlilar Movarounnaxrn egallagandan keyin bu xudduda Yettisuv, Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalaridan, Sirdaryo bo'ylaridan qabilalar, ayrim etnik guruxlarning k°chib kelishi jadallahadi. XI asr boshlaridan to shu asrning 40-yillarigacha Movarounnaxr xududida qarluq, chigil, xalach, arg'u, tug'si, turkesh va boshqa qabilalarining salmog'li qismi ko'chib o'tadi. Bularning ma'lum qismi o'z yurtlarida qolib Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda mavjud b°lgan siyosiy va etnik uyushmalar tarkibida bo'ladilar. Sirdaryo soxillarida yashovchi qang'li va qipchoq qabilalarining qismlari xam Movarounnaxrga va Xorazm voxasiga kelib o'rashadilar. Shunday qilib, XI asrning birinchi yarmidayoq bu o'lkalarning etnik tarkibi bir mucha o'zgardi: tub yerli turkiy va fors-tojik, xorazmiy tilida so'zlashadigan axoli tarkibiga turkiyzabon qabilalarining yangi guruxlari kirib keladi. Movarounnaxr Somoniylar davrida, sharqda iqtisodiy va madaniy jixatdan eng taraqqiy etgan xudud edi. Bu xududning shaxar va qishloqlari obod bo'lgan. Jamiyatning xamma tomonlarida islam dini va shariyatları xukm surgan. Movarounnaxrga kirib kelgan Qoraxonlilar shu yetuk madaniyatga egalik qilib, uni davom ettiradilar. Ko'chib kelgan yarim ko'chmanchi va yarim o'troq etnik guruxlar bo'lib, ular chorvachilik bilan bir vaqtida dexqonchilik bilan xam shug'ullanadilar.

Keyinchalik bularning ko‘pchiligi o‘troqlashib, shaxar va qishloqlarda turg‘un axoli xayotiga moslashib boradilar. XI asrning birinchi yarmilarida Qoraxoniyalar davlatida ichki kurashlar kuchaya boradi. Hokimat uchun kurash oxir oqibat davlatni inqirozga olib keladi. XI asrning ikkinchi yarmida Qoraxonlilar davlati ikki mustaqil davlatga bo‘linib ketadi. Sharqiy qismining markazi Balasag‘un bo‘lib qoladi, g‘arbiy qismining markazi Samarqand bo‘ladi. Shu sanadan Qoraxonlilar davlati tarixining uchinchi bosqichi boshlanadi. G‘arbiy Qoraxonlilar davlati XI-XII asrlar davomida iqtisodiy va madaniy jixatdan taraqqiy etgan; Markazlashagan davlat darajasiga ko‘tarilgan edi. Bu davlat XI asr oxirlarida Saljuqlarga; XII asr o‘rtalarida esa Qorxitoylarga qaram bo‘lgan bo‘lsalar xamki o‘z davlat tuzumining butunligini saqlab qolgan edilar. G‘arbiy Qoraxonlilar davlati ichida o‘zbek ajdodlarining etnogenetik jarayoni davom etadi. Movarounnaxrga kelib o‘rnashgan etnik guruxlar asrlar davomida bu xududda yashovchi qardoshlari bilan birlashib, ular bilan aralashib boradilar. Tub yerli axoli ta’sirida yarim ko‘chmanchi va yarim o‘troqlikda yashab kelgan etnik guruxlar o‘troqlashib dexqonchilik, xunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanadilar. Ularning faqat oz qismi dexqonchilik bilan bir vaqtida an‘anaviy chorvachiliklarini davom qilib kelganlar. Movarounnaxr xududidagi turkiy xalqlarning o‘zaro yaqinlashib, qorishib borishi natijasida xudud axolisi o‘rtasida iqtisodiy va madaniy umumiylig qat’iy lashadi. Umum elat tili va adabiy til shakllanadi.^[4] Movarounnaxr va unga tutashgan mintaqalarda yashovchi barcha turkiyzabon axoli bir xalq (elat) bo‘lganligi ong sezimida butkul o‘rnashib qoladi. Elat shakllanishidagi barcha etnik alomatlar o‘z maromiga yetib, o‘zbek ajdodlarining elat bo‘lib shakllanish jarayoni oxirlashadi. Ammo bu bilan etnogenetik jarayon to‘xtab qolmaydi. Keyingi bosqichlarda yana xam takomillashib boradi. Yuqorida aytganlarimizda xulosa qilib aytmoqchimizki, o‘zbeklarning ilk ajdodlari Movarounnaxr vagunga tutash mintaqalarda madaniyatlarini bir-birlariga yaqin, ikki tilda so‘zlaashuvchi qardosh o‘zbek va tojik xalqlari elat bo‘lib shakllangan. Ularning ilk ajdodlari Movarounnaxrda va unga chegaradosh xududlarda qadim zamonlarda yashagan so‘g‘diylar, xorazmiylar, baqtriyalar, saklar, toxarlarlar, qang‘lar va boshqa xalqlar bo‘lgan. Shimoliy Xitoyda, Sibir, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Sirdaryo soxillarida antik davrlarda va ilk o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan turkiy qabilalar (xun, usun, nushibi, dulu, turkash, qarluq, chigil, xalach, yag‘mo va boshq.) xam o‘zbek ajdodlarining etnogenetik jarayonida muxim o‘rin egallagan. Tilga olingan xalqlar va qabilalarning ko‘pchiligi o‘rta asrlar davomida elat bo‘lib shakllangan turkman, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq xalqlarining xam etnik tarixida juda katta rol o‘ynagan. Demak, Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlar asrlar davomida etnik jixatdan bir-biri bilan yaqin aloqada, qavm-qarindosh bo‘lib kelganlar. Shunday qilib, IX-X asrlar davomida shakllangan o‘zbek elatinining o‘zagi turkiy elatlarning fors-tojik tilli axoli bilan asrlar davomida arlashib, qorishib ketishidan hosil bo‘lgan. XI-XII asrlarda o‘zbek elatinining tarkibida turkiy komponentlar ko‘payadi va uning rivojlanishi asosan turkiy komponentlar asosida o‘tadi. Shu asrlar davomida barcha etnik

ko'rsatkichlar majassamlashadi, o'zbek ajdodlarining aloxida jamoa (elat) bo'lib shakllanishi nixoyasiga yetadi. Shakllangan o'zbek elatinining taraqqiyoti keyingi asrlarda xam davom etadi.

Xulosa. Ishning bayoni davomida xalqning kelib chiqishi to'g'risida kitobxonga aniq bir tasavvur berishga harakat qilindi. O'zbek etnosining tub negizi shu zaminning sug'diy va turkiy qatlamlarining uzoq asirlar mobaynida yonma yon, birga, qo'nishni bo'lib yashab kelganligi, tarix taqazosi bilan ular o'rtaqidagi iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalar sekin-asta ularni etnik jihatdan aralashib va bir-birlari bilan qorishib ketishiga, oxir-oqibatda yangi etnos o'zbek xalqi shakillanganligi bayon etildi. Tarixga e'tibor jamiyatga, kelajakka e'tibordir. Shu sababdan bиринчи yurtboshimiz Islom Karimov barchamizga tarix ilmini chuqurroq organishga, undan saboq chiqarib yashashimiz lozimligini kop bora ta'kidlardi. Bobomiznizning shu jumlalarini oqigan har bir yosh avlod menimcha oz xalqining otmish tarixini yanada chuqurroq organishga harakat qiladi desam aslo adashmasam kerak. "Men, avvalambor, yoshlarimizga qarata aytmoqchiman: oqing, tarixni organing, tarixini, otmishini bilgan odam keljakda adashmaydi." Xulosa qilib aytishim mumkinki, tarix – bizning kamchiliklarimizni, xatolarimizni togirlovchi dasturamoldir. Tarix – borligimiz, kelajagimizdir. Shunday ekan tarixsiz keljakni tasavvur qilib bolmaydi. Tarixiy bilimlar orqali keljakni barpo etamiz. Keling, aziz yoshlar vaqtimizni bekorchi narsaga sarflamasdan boy tariximizni organaylik, osib kelayotgan yosh avlodga biz kimlarning avlodi ekanligimizni ham yetkazaylik. Zero, ular fahr va gurur tuygusini his etib yashasin va ajdoddarga munosib avlod bolsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalimbetov.Y.M "O'zbek xalqining mentaliteti va ilmiy-metodologik yondoshuvlar" mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy seminar materiallari. Toshkent-2007. 57-bet
2. Shoniyozi K "Ozbek xalqining shakillanish jarayoni" Toshkent-2001. 74-102 betlar.
3. Ahmadali Asqarov "O'zbek xalqining etnik tarixi" Toshkent-2007. 333-bet
4. www.ziyonet.uz